



## MARFAN SINDROMINING TASNIFI, KLINIK BELGILARI VA PROFILAKTIKASI

**Muxitdinov Shavkat Muxammedjanovich,**

**Ismoilov Komiljon Tuygunovich**

SamDTU, Tibbiy biologiya va genetika kafedrasи o'qituvchilarи

**To'xtayev Avazbek G'ayrat o'g'li,**

**Raupova Rayhana Erkin qizi**

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti talabalari

**Annostatsiya:** Ushbu maqolada Marfan sindromining kelib chiqish sabablari, tavsifi, tashxis qo'yish usullari va profilaktikasi haqida xorijiy hamda mahalliy ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Marfan sindromi, fibrillin-1 glikoprotein, metakarpal, Paganini, Andersen, Chukovskiy, osteoxondroz, dolixostenomeliya, Gidroksiprolin

**Abstract:** This article contains foreign and local information about the causes, history, methods of diagnosis and prevention of Marfan syndrome.

**Key words:** Marfan syndrome, fibrillin-1 glycoprotein, metacarpal, Paganini, Andersen, Chukovsky, osteochondrosis, dolichostenomelia, Hydroxyproline

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об истории синдрома Марфана, методах диагностики и профилактики.

**Ключевые слова:** Синдром Марфана, гликопротеин фибрillin-1, пястные кости, Паганини, Андерсена, Чуковского, остеохондроз, долихостеномелия, Гидроксипролин

**Kirish:** Marfan sindromi-briktiluvchi to'qimalarning shikastlanishi bilan kechuvchi genatik dominat autosamal irsiy kasallik hissoblanadi. Marfan sindromi kam uchraydigan letall xususiyatga ega kasallikdir. Ushbu sindrom fibrillin-1 glikoprotein sintezini kodlovchi genning mutatsiyaga uchrashi oqibatida kelib chiqadi.

**Tadqiqot maqsadi:** Marfan sindromining kelib chiqish sabablarini aniqlash, oldini olish, asoratlarni yengillashtirish hamda kasallikni tarqalishida irsiyat va muhit omilining rolini o'rganishdan iborat.

**Material va usullar:** Marfan sindromi diagnostikasi klinik belgilariiga FBN1 genidagi o'zgarishlarni aniqlashga asoslanadi. Kasallik etiologiyasi 15 xromosomaning 21.1-lokuslaridagi kalta yelkasida joylashgan FBN1 (fibirlillin 1) genining mutatsiyasidir. Sindrom sitogenetik usulida aniqlanadi. Sindromning nasldan-naslga o'tish turi autosoma dominant. Kasallik yuqori penetrantlik(genning paydo bo'lish chastotasi) va turli ekspressivlik bilan tavsiflanadi. Erkaklar va ayollarda kasallikning uchrash ehtimoli bir xil.

**Natijalar va muhokama:** Marfan sindromi kasalligida-yangi tug'ilgan chaqaloqlarda oyoq – qo'llarida cho'zilgan ingichka barmoqlar va cho'zilgan, ingichka tana tuzilishi (dolixostenomeliya) aniqlanadi. Vazn yetishmasligi, cho'zilgan bosh suyagi, uzun yuz, araxnodaktilya (g'ayritabiyy cho'zilgan ingichka va uzun barmoqlar), mushak tizimi va yog' to'qimalarining zaifligi va juda kam rivojlanganligi kabi alomatlar kuzatiladi.. Ko'pgina bemorlarda baland duksimon tanglay, ko'krak voronka shaklida va umurtqa pog'onasi egriligi (60% skolioz, kifoz), yuvenil davrda osteoxondroz kuzatilsa. Marfan sindromida ko'krak qafasining yassiligi, yurak xastaligining auskultativ belgilari (shovqinlar), uchinchi



barmoqning uzunligi 10 sm yoki undan ko'p (7-18 yoshli bolalarda skrining tekshiruvi): oyoq gumbazining tekislanishi ya`ni yassioyoqlik yuqori oyoq-qo'llar oralig'ining tananing uzunligiga nisbati ortadi. Marfan sindromida yurak va qon tomirlari, tayanch-harakat tizimi va ko'zlardagi patologik o'zgarishlar bilan tavsiflangan irlsiy biriktiruvchi to'qima kasalligi hissoblanadi. Marfan sindromi 3000-5000 kishidan 1 nafariga ta'sir qiladi. Sindromning rivojlanishining sababi-biriktiruvchi to'qimalarning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan fibrillin genidagi nuqsonlar tufayli yuzaga keladi.

Qo'l kaftini mushtlaganda bиринчи бармоқ гипотенар остидан чиқиб олади. Бир qo'l kafti bilan ikkinchi qo'lning kaftusti qismi aylantirib ushlanganda jimjiloqning bosh barmoq ostida qolishi aniqlanadi. Metakarpusning o'rtacha uzunligini ikkinchidan to'rtinchi metakarpal suyakkacha bo'lган kenglikka bo'linadi. Oddiy nisbat bilan bu ko'rsatkich 5,4-7,9 ga to'g'ri keladi, Marfan sindromida esa 8,4 dan ortiq. Marfan sindromi kasalligida-yangi tug'ilgan chaqaloqlarda oyoq – qo'llarida cho'zilgan ingichka cho'zilgan barmoqlar, ingichka tana tuzilishi (dolixostenomeliya) aniqlanadi. Vazn yetishmasligi, cho'zilgan bosh suyagi, uzun yuz, araxnodaktiliya (g'ayritabiiy cho'zilgan ingichka va uzun barmoqlar), mushak tizimi va yog' to'qimalarining zaifligi va juda kam rivojlanganligi kabi alomatlar kuzatiladi.. Ko'pgina bemorlarda baland duksimon tanglay, ko'krak voronka shaklida va umurtqa pog'onasi egriligi (60% skolioz, kifoz), yuvenil davrda osteoxondroz kuzatiladi. Marfan sindromida ko'krak qafasining yassiligi, yurak xastaligining auskultativ belgilari (shovqinlar), uchinchi barmoqning uzunligi 10 sm yoki undan ko'p (7-18 yoshli bolalarda skrining tekshiruvi): oyoq gumbazining tekislanishi ya`ni yassioyoqlik yuqori oyoq-qo'llar oralig'ining tananing uzunligiga nisbati ortadi. Gavhar ektopiyasi oftalmologik alomatlar (miopiya, 75% hollarda ko'z gavharining joyidan ko'chishi, uning yumaloqligi yoki gipoplaziysi, to'r pardanening ko'chishi) astenik belgilari (charchoq, letargiya) hayotning ikkinchi yilidan boshlab e'tiborni tortadi, Bemorning yoshi to'rt yoshdan katta bo'lsa, yurak va qon tomirlari kasalliklari alomatlari maktabgacha yoshda aniqlanadi. Deyarli barcha bemorlarda yurak va aorta nuqsonlari, ko'pincha son va chov churralari, venalarda klapanning shikastlanishi, ularning varikoz kengayishi, gemorragik sindrom, o'pka tizimining shikastlanishi, buyraklarning o'rnidan pastga tushib qolishi holatlari tez-tez uchrab turadi. Bemorlarning har to'rtadan birida aqlning pasayishi qayd etilgan, bemorlarning yarmida hissiy-irodaviy buzilishlar aniqlangan. Ko'pincha depressiv holatlar, neyrosirkulyator distoniya kuzatiladi. Ko'pgina tadqiqotlarga ko'ra Marfan sindromi bilan og'igan bemorlarning aksariyatida quvonch hissi va kasbiy faoliyatga ishtiyoqni yo'qotishi qayd etilgan.

Kasallikning bиринчи belgilari 1875-yilda amerikalik oftalmolog E.Uilyams tomonidan aniqlangan, u juda baland bo'yli va tug'ilishdan gipermobil bo'g'img'irlarga ega bo'lган aka-uka va opasingilda tasvirlab bergen. Keyingi yillarda bu kasallikni fransuz pediatriya professori Antuan Marfan kuzatdi, u 1896-yilda sklet anomaliyalari bilan og'igan 5 yoshli Gabrielning klinik kuzatdi va kasallikka o'z nomini bergen. 15% Marfan sindromi bo'lган bolaning paydo bo'lishi tasodifiy bo'lib, ota-onalarda esa yengil namoyon bo'lishi mumkin. Bemorlarning yaqinlarida oshqozon-ichak trakti kasalliklari, umurtqa pog'onasi shikastlanishi, ko'z kasalliklari bo'lganlarda kuzatiladi. Marfan sindromiga eng kichik shubha qilinganda ham oftalmologning maslahati zarur. Bunda bemorlarning siydigini tahlil qilishda gidroksiprolin, glikozaminoglikanlar darajasining oshishi kuzatiladi, ammo bu ko'rsatkichlar past o'ziga xosdir, ular turli xil biriktiruvchi to'qimalar displaziyalari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Gidroksiprolinning chiqarilishi kasallikning og'ir ko'rsatkichidir. Trombotsitlar darajasida qon ivishining buzilishi bilan boradi.

Kasallikni profilaktikasi uchun yuqori sifatlari prenatal va preimplantatsiya diagnostikasi uchun muhim shart ota-onalarda aniqlangan mutatsiyaning mavjudligi aniqlash. Implantatsiyadan oldingi diagnostika in vitro urug'lantirish (EKO) paytida amalga oshiriladi. Prenatal diagnostika uchun material invaziv usullar (amniosentez, xorion vorsinkalari biopsiyasi, platsentosentez, kordosentez va boshqalar) yordamida olinadi.



Ushbu kasallik bilan og'rigan mashxurlar ham bo'lib, ular; qadimgi Misrning mashxur fir'avnlaridan biri—Exnaton Exnaton, italiyalik mashxur kompozitor va skripkachi-Nikolla Paginini, fransuz harbiysi-general, davlat arbobi—Charles de Gaulle-1963, AQSHning 16-prezidenti Avraam Linkoln Abraham ham hissoblanadi. Marfan sindromi va boshqa irsiy biriktiruvchi to'qima kasalliklarining eng tipik va ko'pincha jiddiy asoratlari aortaning yorilishi yoki parchalanishi hissoblanadi. Marfanda o'rtacha umr ko'rishning qisqarishi (90-95% 40-50 yilgacha yashamaydi) va to'satdan o'lim xavfi yuqori. Marfan sindromi uchun o'z vaqtida yurak jarrohligi qilinsa, ularning yashash muddatini (60-70 yilgacha) sezilarli darajada oshirishi va bemorlarning hayot sifatini yaxshilashi mumkin. Profilaktik choralar va kerak bo'lganda jarrohlik aralashuvi tufayli so'nggi 30 yil ichida rivojlangan mamlakatlarda ushbu asoratlар xavfini sezilarli darajada kamaytirish va bunday bemorlarning umr ko'rish davomiyligini sezilarli darajada oshirish mumkin bo'lди.

**Xulosa:** Marfan sindromida yurak va qon tomirlari, tayanch-harakat tizimi va ko'zlardagi patologik o'zgarishlar bilan tafsiflangan irsiy biriktiruvchi to'qima kasalligi hissoblanadi. Bu sindrom fibirillin-1 glikoprotein sintezini amalga oshiruvchi gen mutatsiyaga uchrashi oqibatida kelib chiqadi. Marfan sindromi yurak-qon tomir kasalliklarining rivojlanishiga, ba'zi odamlarda alohida kuch va aqliy qobiliyatlarning paydo bo'lishiga yordam beradi. Davolash usullari aniqlanmagan. Bu kasallik bilan mashhurlardan Paganini, Andersen va Chukovskiyda ham kuzatilgan. Irsiylanish chastotasi – 0,04:1000 ga teng.. Kasallik skelet, yurak mushaklari qon tomirlari, ko'rish organlari tuzilishidagi turli patologik o'zgarishlar bilan tafsiflanadi. Ko'pincha nogironlik, ko'rish organining shikastlanishi, uning xiralashuvi natijasida yuzaga keladi. O'lim holatlari qon tomirlar va yurakning shikastlanishi oqibatida sodir bo'ladi. Kasallikning naslga o'tish xavfi 50% ni tashkil qiladi. Marfan sindromi bilan og'rigan bemorlarning hayoti bиринчи navbatda yurak-qon tomir tizimidagi nuqsonlar darajasi, shuningdek skelet va ko'zlarning shikastlanishi bilan belgilanadi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Marfan Syndrome (en). NORD (National Organization for Rare Disorders). 20-fevral 2017-yilda asl nusxdan arxivlandi. Qaraldi: 23-sentyabr 2019-yil
2. Marfan A. B. Un cas de deformation congenital des quatre membres plus prononcee aux extremities caracterisee par l'allongement des os avec un certain degré d'amincisement. // Bulletins Et Memoires De La Societe Medicale Des Hopitaux De Paris. — 1896. — Vol. 13. — PP. 220—226.
3. Ismoilov K. T. et al. BUTTERFLIES: TAXONOMY AND BIOETICS OF NIGHT AND DAY BUTTERFLIES IN UZBEKISTAN //Science and innovation. — 2022. — T. 1. — №. D3. — C. 1-8.
4. Ismoilov K. T. et al. COMMON INTERNAL PARASITES AND THEIR TAXONOMY AMONG YOUNG CHILDREN IN UZBEKISTAN //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. — 2022. — T. 3. — №. 06. — C. 190-196.
5. Ismoilov K. T., "Interrelation of Viability and Productivity Indicators with Ethological Characteristics in the Growth and Development of Sur Karakol Lambs" CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES olume: 04 Issue: 02 | Mar-Apr 2023 ISSN: 2660-4159, 219-223b <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/634>
6. Ismoilov Komiljon Tuygunovich, Aliev Dilmurod Davronovich, Matkarimova Gulnoz Maksudzhanovna, Rajabov Jasur Pardaboevich - Ecological Bases of Productivity of Flow-Colored Sheep. Jundishapur Journal of Microbiology Research Article Published online 2022 April . Vol. 15, No.1 (2022)
7. Komiljon I. et al. SUR RANGLI QORAKO'L QO'ZILARINING HAYOTCHANLIK VA MAHSULDORLIGIGA ETOLOGIK XUSUSIYATLARINING TA'SIRI //Innovations in Technology and Science Education. — 2023. — T. 2. — №. 8. — C. 690-696.
8. Komiljon I., Dilmurod A., Shavkat M. Sur qorako 'l qo'ylarining hayotchanligi, mahsuldorligi va reproduktiv xususiyatlarini oshirishning fiziologik ko'rsatkichlarga bog'liqligi //RESEARCH AND EDUCATION. — 2022. — T. 1. — №. 7. — C. 49-56.



9. Mukhammedjanovich M. S., Tuygunovich I. K., Normuratovna M. G. Interrelation of Viability and Productivity Indicators with Ethological Characteristics in the Growth and Development of Sur Karakol Lambs //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 219-223.
10. Mukhiddinov, Sh., Aliyev, D., Ismoilov, K., & Mamurova, G. (2020). The Role Of Biologically Active Substances In The Blood In Increasing The Productivity Of Sheep. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(03), 2020.
11. Mukumov I. U. et al. Distribution and Chemical Composition of Monocarpic Plants of the Apiaceae Family in Tien Shan Mountain //American Journal of Plant Sciences. – 2022. – Т. 13. – №. 2. – С. 265-276.
12. Tuygunovich I. K., Muxammedjanov M. S. HERITAGE AND HERITED DISEASES //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 2. – С. 667-670.
13. Xayrullayeva M. D., Tuygunovna Y. Z., Tuygunovich I. K. UZUMNING SOG 'LOMLASHTIRILGAN KO'CHATLARINI IN VITRO USULIDA KO'PAYTIRISH TEXNOLOGIYASI //Innovations in Technology and Science Education. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 1381-1390.
14. Yunusova Z. T., Ismoilov K. T., Normurodov D. S. GF 677, GARNEM, GISELA PAYVANTAGLARINI IN-VITRO USULIDA KO 'PAYTIRISH TEXNOLOGIYASI //Research and Education. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 25-32.
15. Мухитдинов, Ш. М., Алиев, Д. Д., Исмоилов, К. Т., Мамурова, Г. Н., & Джуманова, Н. Э. (2019). Взаимосвязь биологически активных веществ с продуктивностью и физиологическими свойствами каракульских овец. INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF NATURAL SCIENCES AND MEDICINE, 86-95.
16. Халимбетов Ю. М. и др. Факторы духовного развития молодежи //Достижения науки и образования. – 2019. – №. 12 (53). – С. 34-36.